

**SHUKUR SA'DULLA SHE'RIY-ADABIY ERTAKLARINING YOSH AVLOD
TARBIYASIGA TA'SIRI**

Sh.M.Istamova

OXU Pedagogika va psixologiya kafedrası professori

Najimova Gulchiroy Elmurod qizi

OXU 2-FT(O‘)-24 guruhi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida o‘zining bolalarbop betakror, mag‘zi to‘q asarlari – she‘rlari, she‘riy adabiy ertaklari bilan munosib hissa qo‘shgan adib Shukur Sa‘dulla qalamiga mansub she‘riy ertaklar yordamida yosh avlodni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash haqida so‘z boradi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается воспитание подрастающего поколения в духе человеческих качеств с помощью поэтических сказок писателя Шукура Саъдуллы, который внес значительный вклад в развитие узбекской детской литературы своими уникальными и убедительными произведениями – стихами и поэтическими литературными сказками.*

Annotation. *This article discusses the education of the younger generation in the spirit of human qualities with the help of poetic fairy tales by the writer Shukur Sadulla, who made a significant contribution to the development of Uzbek children's literature with his unique and convincing works - poems and poetic literary fairy tales.*

O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni XX asrning 20-30-yillarida ayniqsa, jiddiy tus oldi, tezlashdi va qamrov kasb eta bordi. Asosan, she‘riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti bu davrga kelib xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o‘z janriy imkoniyatlarini adabiy ertakning she‘riy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak singari xilma-xil shakllari bilan boyitish va to‘ldirishga muvaffaq bo‘la boshladi. Aslida XX asrning 10-yillarida Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan “Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi” she‘riy ertagi, shuningdek, 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi”, Abdurauf Fitratning “Qiyomat” nasriy adabiy ertaklaridan o‘z sarchashmasini olgan folklor syujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistik o‘zbek bolalar adabiyotini shakllantirish hamda rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakam yangi bosqichga ko‘tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor edi:

Birinchidan, xuddi shu yillarda o‘zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo‘shiq-lari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshladi. Bu ishda Elbek G‘ulom Zafariy va Shukur Sa‘dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko‘rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini

to‘plash yo‘lida qizg‘in izlandi. 1937 yilda o‘zi to‘plagan asarlar asosida tartib bergan «Bolalar qo‘shig‘i» to‘plamini nashr ettirdi. Ikkinchidan, 30-yillarning boshlarida: «Bolalarga ertak kerakmig‘», «Sehrlili-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmig‘» -

10-Aprel, 2025-yil

degan mavzularda boshlangan qizg‘in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada, xalq ertaklari syujetlarini turli shakllarda ijobiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni

xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada, folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashishga kirishdi:

Bolalar uchun ijod etish an'anasi hali yozuv bo'lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmacholari, shuningdek xalq ertaklari, topishmoqlari, tez aytishlari, qiziqmacholari, qaytarmacholari, taqvim va maishiy qo'shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo'luvchi o'yinlari shakllarida folklor bag'rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalari bilan sug'orilgan qadimiy an'ana bo'lib, uning ijobiy andazasi bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashgan badiny yozma adabiyotnig vujudga kelishini ta'minlagan omil bo'ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa, bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko'rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvi, g'oyaviy-badiiy barkamollashuvi, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini

ta'minladi. Shu tariqa, o'zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

O'zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to'plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folklordagi janriy rang-baranglik va nfodaviy vositalardan ijobiy foydalanishda, asosan, quyidagi ikki yo'nalishga amal qildilar:

Birinchi yo'nalish - folklor namunalarini (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarii) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti - asarning xalqchil ruhiga putur yetkazmagan holda g'oyaviy-badiiy barkamolligini ta'minlash va shu acosda axlokiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an'anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Sh. Sa'dulla ana shu ilg'or tajribani o'rganish asosida nafaqat o'zbek, balki boshqa xalqlar ertaklarini xam bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma'lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo'ldi. Bu davrda u ellikdan ortid xalq ertagini bolalarga moslashtirib qayta ishladi. Ular «Ikkisandiq» (1945G`1948), «Yoriltosh», «Uch tulki» (1947), «Qarg'avoy» (1948), «Tulki bilan turna» (1955), «Ohanrabo» (1959) singari rasmlı kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi. Bu nashrlar o'zbeq xalq ertaklarining «O'zbek xalq ertaklari» (1948G`1955), «Chalpak yoqqan kun», «Bo'ri bilan tulki» (1969), kabi bolalarbop majmualari, shuningdeq «Xitraya lisa», «Uzbekskie narodno'e skazki» (1959), «Dva sunduka» (1963), «Den padayuhix s neba blinov», (1968) va «Volk i lisa» (1970) singari rus tilidagi tarjima nashrlarining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Sh.Sa'dulla xalq ertaklarini kompozitsion soddaligi, xalqchilligi, g'oyaviy yo'nalishiga putur etkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo'lishiga diqqat qildi.

10-Aprel, 2025-yil

Natijada, ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun «hayot darsligi» vazifasini o'tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e'tiborga loyiq. Zero, u bu yoshdagi bolalarning diqqati beqarorroq bo'lishi, uzoq muddat davomida tinglash ularni tez charchatishini hisobga olib, hajmi katta ertaklarning ba'zilarini birmuncha qisqartirdi, ba'zilarini esa bir necha mustaqil ertakchalarga bo'lgan holda kichkintoylarga taqdim etdi. Bu jihatdan «Bo'ri bilan Tulki» ertagi xarakterli. Xalqimiz o'rtasida mashhur bu qadimiy ertak hajm jihatidan anchagina katta. Unda bo'ring yovuz va go'lligi, tulkinning ayyor va olg'irligi zahirida o'tmishda zo'ravonlarning zolimligi fosh qilinsa, qo'zichoq, xo'roz va qo'shchi chol obrazlari misolida mehnatkash xalqning ma'naviy go'zal va pokligi, aqlli va tadbirkorligi, samimiy va qasoskorligi realistik tarzda ifodalanadi. Ertak xotimasida Bo'ring o'lishi - zolimlik dunyosining chirishi, qulashiga timsol bo'lib, xalq nekbinligining hayotbaxsh qudratini yorqin ko'rsatadi. Sh.Sa'dulla bog'cha yoshidagi bolalarning katta hajmli bunday ertaklarni idrok qila olmasliklarini payqab, uning negizida bir-biridan mustaqil bo'lgan ikkita ertak yaratdi. Ertakchalarning birinchisi «Och bo'ri» deb nomlangan. U bo'ring qo'zichoq, cho'pon va qirchang'i bilan munosabati lavhalarini o'z ichiga oladi. Ertak go'lligi tufayli otdan qattiq tepki egan bo'ring o'limi bilan xotimalanadi. Bunday yakun ertakning kompozitsion yaxlitligini ta'minlagan. Qizig'i shundaki, Sh.Sa'dulla keyinchalik xuddi shu ertak asosida, aynan shu.epizodlarni o'z ichiga olgan «Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirchang'i» she'riy ertagini ham yaratdi.

«Chol bilan bo'ri» - ertakchalarning ikkinchisi. Bu asarga endi soddadillikda xalq ertagidagi qo'shchidan qolishmaydigan qop ko'targan chol va bo'ri munosabatlari lavhasi asos qilib olingan. Chol o'z rahmdilligi va soddaligi tufayli bo'ring «qopqoni»ga tushadi. Ertakni tinglayotgan kichkintoy cholga achinadi, unga rahmi keladi. Bu esa unda insonga muhabbat tuyg'usini tarbiyalaydi. Ammo ayyor tulkinning tadbirkorligi bilan bo'ri tajovuzidan qutulgan cholni ko'rib quvonadi. Bu ertak ham bo'ring o'limi bilan tugallanib, xalq nekbinligining barhayot qudratini kichkintoylar qalbiga ko'chiruvchi, kompozitsiyasiga ko'ra mustaqil asardir. Adib xuddi shu ertaq asosida keyinchalik kichkintoylar uchun «Chol bilan bo'ri» nomli kichik she'riy pesa ham yozgan.

«Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Bo'ri va echki bolalari» kabi qaytariqlar negiziga qurilgan «Qarg'a va qo'zi» ertagi ham Sh. Sa'dulla qalami ostida uch marta sayqal topdi. «Qarg'avoy» nomida alohida suratli kitobcha holida nashr etilgan varianti bilan «Ayyor tulki» kitobchasidagi variantining syujeti, tasvirdagi ba'zi so'z o'zgarishlarini istisno qilganda, deyarli bir xil. Ammo «O'zbek xalq ertaklari» to'plamidagi variantining xotimasi bu ikki variantdan ancha farq qiladi. Avvalgi variantlarda Qarg'a suvga cho'ksa, keyingisida bo'ynini o'roqning qirqishiga fahmi etmaganligidan o'z umriga o'zi zomin bo'ladi. Umuman, Qarg'aning qazosi - tajovuzkor zolim hamisha o'limga mustahiq, degan xalqona aqidaning majoziy isboti. Bu ma'no ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, «Karg'avoy» va boshqa «har bir bolalar ertagida faqat kattalargina tushuna oladigan ikkinchi bir ma'no»¹ mavjudligini, binobarin, har bir afsona zahirida real haqiqat yotganligini oydin ko'rsatuvchi ertaklarga xos fazilat ham. Bu ijtimoiy ma'noni bog'cha va kichik yoshdagi kichkintoylar

hali anglab etmaydilar. Chunki ularning tushunchasida yaxshi va yomon, issiq va sovuq, yumshoq va qattiq singarilarnigina ajrata bilish endigina muayyan jarayonga aylanayotgan bo‘ladi. Shunga qaramay, kichkintoy antipatijasini qo‘zg‘agan bo‘ri, qarg‘a va boshqa yovuzlik timsolidagi kuchlarning o‘limi kichkintoylarni achintirmaydi, yomonlik ustidan yaxshilik kuchlarining tantanasi tinglovchi - kichkintoylar qalbiga ma‘qul tushadi va ularning muhabbatini qozonadi.

Hayvonlar to‘g‘risida ertaklarning bog‘cha va kichik yoshdagi bolalarga muvofiq keladigan yana bir muhim fazilati - ularda syujetning tartibli va to‘xtovsiz harakat negizida voqe bo‘lishi, dialoglarning muntazamligi va ko‘pligi, sodda va aniq ifodalarning mavjudligi hamda ular barchasining o‘zaro mutanosibligidir. Bu esa ertaklarning o‘qimishlilikini ta‘minlagan omillardan sanaladi. Sh.Sa’dulla ham, ta‘bir joiz bo‘lsa, ertaklarni qayta ijod etish jarayonida har bir hayvonning, qushning o‘z ovozi, xarakteriga xos harakatlarini ishonitirarli va tabiiy holda ifodalashga e‘tibor berdi. Bolalik azal-azaldan tongga qiyoslanadi. Bu bejiz emas. Bolalik tong qadar beg‘ubor, kishi qalbida sof va samimiy tuyg‘ular uyg‘otuvchi va bezavol davrdir. Yanada muhimi esa tong kunning debochasi bo‘lganidek, bolalik inson kamolotining debochasi, ilk bosqichidir. Shukur Sa’dullaning eng katta baxti shuki, unga ana shu tongni, demakki bolalikni kuylash nasib etdi. U shoir sifatida bolalar olamini baxtiyorlik ramzi sifatida tarannum etdi, yozuvchi sifatida bolalikni badiiy talqin qildi, dramaturg sifatida esa bolalik olamini munavvar sahnaga olib chiqqan iste‘dod egasidir.

Shukur Sa’dullaning har bir she‘ri, hikoyasi, qissasi, ertak dramalari bolalikka bag‘ishlangan bir doston, go‘yo. U bolalarni shu qadar sevgani, ustoz darajasida anglashga intilgani zavqovar asarlaridayoq ko‘rinadi. Jumladan, yetmish yildan oshmoqdagi, u sahnalashtirgan “Yoriltosh” ertak dramasi sahnadan tushmay keladi. Adib bolalar uchun deyarli barcha janrlar yozdi. Xalq og‘zaki ijodining ayrim namunalari esa yozma adabiyotga omuxtalashtiradi. Bolaligidan ertakka oshno o‘sgan shoir, ulg‘ayganda ham bu odatini tark etmadi. Alal-oqibat o‘zi ertakchiga aylanib qoldi. Talay xalq ertaklarini to‘pladi, ellikdan ortig‘ini turli yoshdagi bolalarga moslab, badiiy jihatdan qayta ishladi. Kichkintoy do‘stlariga qolqlorchi noshir sifatida yigirmaga yaqin kitob tortiq etdi. Shukur Sa’dulla kuylagan bolalik-o‘ziga xos murakkab olam. U deyarli barcha mavzularni, turfa obrazlarni o‘z asarlarida aks ettira oldi. Jumladan, “Yoriltosh” ertak dramasi kichkintoy bolalardan tortib, o‘smir bolalargacha yod bo‘lib ketgan asar. Uning qahramonlari, sehrli tilsimlar, yovuzlik ustidan adolatning, haqiqatning g‘olib kelishi kabilar bolalar va o‘smirlar ruhiyatiga, fantaziyasiga mos keladi. O‘tmishda ham, bugun ham yosh avlodni ana shunday sarguzasht voqealar, tilsimli detallar, yaxshi va yomon o‘rtasidagi kurashlar va bunda albatta yaxshilikning g‘olib kelishi qiziqtirib kelgan. Ertak dramadagi Oymomaning kiyikka aylanishi voqeasi ham o‘quvchilarga ibratli xulosani anglatadi. O‘zboshimchalik, kattalarning gaplariga quloq solmaslik biror kuru holni turg‘izini asoslaydi. Shuningdek, Gulnora ham suv tubida ham marjon asrab qolishi, u erda qo‘sh farzandli bo‘lishi voqealari garchi to‘qima, fantastika bo‘lsa-da, kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Pesani ham shu ma‘noda, zerikmay ko‘rish mumkin. Ertak dramaning nihoyasi esa yanada hayajonli. Bekoyim va

10-Aprel, 2025-yil

Parixon-o'gay ona shoh tomonidan o'ziga yarasha jazosini berganda, har qanday bola xursandligidan qiyqirib yuboradi. Chunki,omida bu ikkala personajning hiyla-yu nayranglari, kirdikorlaridan voqif bo'lib borgan tomoshabin shunday jazodangina ko'ngli to'lar edi. Gulnora, Oymoma, otasi birgalik yana ahil shohsaroyida yashashlari ham barchani birdek xursand qiladi. Aytish mumkinki, Sh.Sa'dulla “Yoriltosh” ertak-dramasini ijodiy ishlashda avvalo, o'zini yosh tomoshabin o'rniga qo'yib ko'rganiga shubha yo'q. Asardagi juz'iy kamchiliklar, tasviriy ifodalardagi notabiiylik, albatta, etuk tadqiqotchi olimlar nigohida ko'zga tashlanadi. Biz esa asarga avvalo oddiy kitobxon nigohi bilan nazar tashladik. Shu bois, ertak-drama haqidagi fikrlarimiz ham ijobiy. Shukur Sa'dulla o'zining qirq yildan ziyodroq davom etgan ijodiy faoliyatida yosh avlodga elni, Vatanini suygan adib sifatida, shu tuyg'uni yosh avlodga ham singdirishni ko'zlagan.